



## HISTORICAL FACTORS AND THE SOCIO-PHILOSOPHICAL CONTEXT OF THE FORMATION OF THE KOREAN DIASPORA IN UZBEKISTAN

**Oybek Mirodilovich Usarkulov**

*Independent Researcher*

*Teacher of History, Academic Lyceum of Fergana State University*

[oybekusarkulov@gmail.com](mailto:oybekusarkulov@gmail.com)

*Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Korean diaspora, history of Uzbekistan, deportation, socio-philosophical analysis, national identity, integration, cultural heritage.

**Received:** 02.12.25

**Accepted:** 03.12.25

**Published:** 04.12.25

**Abstract:** This article analyzes the formation of the Korean diaspora in Uzbekistan through historical factors and a socio-philosophical perspective. It examines the forced deportation of the 1930s, adaptation to new geographic and cultural conditions, preservation of national identity, and the key determinants influencing the community's socio-cultural development. The study also highlights the contribution of the Korean diaspora to Uzbekistan's society and discusses its role in promoting interethnic harmony and cultural coexistence within the framework of state policies.

## TARIXIY OMILLAR VA IJTIMOIIY-FALSAFIY KONTEKSTDA O'ZBEKISTONDA KOREYS DIASPORASINING SHAKLLANISHI

**Oybek Mirodilovich O'sarkulov**

*Mustaqil tadqiqotchi*

*Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

[oybekusarkulov@gmail.com](mailto:oybekusarkulov@gmail.com)

*Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** koreys diasporasi, O'zbekiston tarixi, deportatsiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil, milliy identitet, integratsiya, madaniy meros.

**Annatsatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda koreys diasporasining shakllanish jarayoni tarixiy omillar va ijtimoiy-falsafiy kontekstda tahlil qilinadi. XX asrning 30-yillarida sodir bo'lgan majburiy deportatsiya, yangi hududga moslashuv jarayonlari, milliy identitetning saqlanishi

hamda diasporaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar har tomonlama o'rganiladi. Shuningdek, diasporaning O'zbekiston jamiyatiga qo'shgan hissasi, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik siyosati doirasidagi o'rni falsafiy nuqtayi nazardan asoslanadi.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ КОНТЕКСТ ФОРМИРОВАНИЯ КОРЕЙСКОЙ ДИАСПОРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Ойбек Миродилович Усаркулов**

*Независимый исследователь*

*Преподаватель истории академического лицея*

*Ферганского государственного университета*

[oybekusarkulov@gmail.com](mailto:oybekusarkulov@gmail.com)

*Фергана, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

| Ключевые                                                                                                                                                    | слова: | Аннотация:                                                                                                                                                                                                                       | В | статье |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|--------|
| самоопределение, диалог «Я – Другой», технологизация общества, антропологический кризис, стратегии самоидентификации, селфи-культура, цифровой автопортрет. |        | рассматривается проблема самоидентификации человека в новой социальной реальности, трансформация стратегий идентификации как реакция на вызовы современности, ее формы, особенности, структурные уровни, значение и последствия. |   |        |

**Krisih.** XX asrning 30–40-yillarida sovet hokimiyati tomonidan bashariyat tarixidagi eng shafqatsiz qatag'onlardan biri hisoblangan xalqlarni majburiy ko'chirish siyosati amalga oshirildi. Bu siyosatdan ko'zlagan bosh maqsad kommunistik mafkura g'oyalari asosida tashkil etilgan hokimiyatni saqlab qolish hamda yanada mustahkam ildiz otishi uchun zamin hozirlash edi. Shu sababdan, sovet hokimiyatiga, uning yuritgan nodemokratik boshqaruv tizimiga qarshi chiqishi mumkin bo'lgan har qanday unsurlarga shubha bilan qaraldi, gumon ostiga olinganlarga turli ayblar ag'darilib, dushmanlar qatoriga kiritildi, qora ro'yxatga olinib tuhmatlar bilan badarg'a qilib yuborildi.

**Materiallar va metodlar.** Stalin davridagi repressiyalar va deportatsiyalar – nafaqat siyosiy tarixning og'riqli bo'limi, balki u insoniyat mavjudligi, erkinlik, identiklik, ahloq va tarixiy adolat kabi falsafiy muammolarni ham qamrab olgan murakkab hodisadir

Stalin davrida biror shaxsga qarshi emas, balki butun etnik guruhlariga nisbatan jazo chorasi qo'llanilgan. Bu esa kollektiv ayblilik printsiptiga asoslangan bo'lib, axloqiy-falsafiy jihatdan mutlaqo asossiz va xavfli tajriba hisoblanadi. Bu yerda “aybdor” bo'lish subyektiv emas, balki etnik kelib chiqishga asoslangan bo'lgan. Bu — ontologik determinizm, ya'ni insonni uning

ijtimoiy kelib chiqishi orqali belgilashga urinishdir. Shu bilan birga, “deportatsiya” atamasi dastlab rus tilida tor ma’noda — noxush shaxslarni o’z milliy davlatlari hududidan chiqarib yuborish ma’nosida ishlatilganini yoddan chiqarmasligimiz kerak. Garchi “deportatsiya” atamasi Stalin davridagi milliy siyosat va Sovet tarixi bo’yicha rus tilidagi ilmiy diskursga mustahkam kirgan bo’lsa-da, ko’pincha bu hodisaning ko’p qatlamli mohiyati e’tibordan chetda qoladi. Chunki Sovet rejimi tomonidan bunday deportatsiyalar xoinlik, dushmanlik, xorijiy davlatlarga yordam berish kabi ayblovlar asosida jazolash chorasi sifatida emas, balki xavfli vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar sifatida ham amalga oshirilgan.

Stalin va Molotov imzosi bilan qabul qilingan “Uzoq Sharq chegaradosh hududlardagi koreys aholisini ko’cherish to’g’risida”gi qaror yuz minglab begunoh insonlarning taqdirini o’zgartirdi. 1937-yil sentabr-oktabr oylarida Qozog’istonning kam yashovchi hududlariga 95256 kishi (20170 oila) va o’zbekistonga 76525 kishi (16272 oila) majburan ko’chirildi.

**Muhokama va natijalar.** Chor Rossiyasining bosqinchilik maqsadini unutmagan bolsheviklar o’zlarining g’ayritabiiy va ijtimoiy haqiqatdan uzilgan g’oyaviy qarashlari ta’sirida kapitalistik bosqichni chetlab o’tgan holda bevosita kommunistik jamiyat barpo etishni ko’zladilar. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy tizimlarni, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini, milliy-madaniy o’zligini va tarixiy rivojlanish yo’nalishini keskin o’zgartirishga qaratilgan edi. Ayniqsa, Sovet ittifoqi chegaralarida istiqomat qilayotgan etnik guruhlar, xususan, 1937-yilda majburan ko’chirilgan koreys diasporasi ushbu sun’iy modernizatsiya siyosatining bevosita ta’sir doirasiga tushdi.

Majburan ko’cherish jarayoni nihoyatda shafqatsiz sharoitda amalga oshirildi. Koreys aholisi o’zlari yashab turgan joylarni tark etishga majbur bo’lib, deyarli barcha mol-mulkalaridan voz kechdi va buning evaziga ular faqat “ayirboshlash kvitansiyalari” deb ataluvchi hujjatlarni oldilar. Biroq ushbu kvitansiyalar ko’pincha belgilangan tartib qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilmagan holda yuridik kuchga ega bo’lmagan.

Ko’chirilgan koreys etnik jamoasi (“maxsus ko’chirilganlar”) yangi yashash hududlarida passport olish imkoniyatiga ega bo’lgan bo’lsa-da 1954-yilgacha ularning hujjatlarida yashash hududi bilan bog’lanishni bildiruvchi maxsus cheklov tamg’asi bo’lgan. Bu tamg’a muayyan joylarga “biriktirilgan” deb belgilangan va mamlakat bo’ylab erkin harakatlanish huquqidan mahrum qilingan. 1947-yil 3-martdagi SSSR ichki ishlar vazirligi direktivasiga ko’ra, ularga 25 yil davomida boshqa hududlarga erkin ko’chib yurish qat’iyan man qilingan.

Aslida, ichki ziddiyatlarsiz, adolatli va insonparvar jamiyat qurish — insoniyatning azaliy ezgu niyatidir. Biroq bu niyatni amalga oshirish har qanday sotsiumning ichki qonuniyatlari, tarixiy taraqqiyot darajasi va ijtimoiy dinamikasiga muvofiq tarzda olib borilishi zarur. Aks holda,

bu “ezgu niyat” kuch va zo‘ravonlik vositalarida namoyon bo‘lib, uni ro‘yobga chiqarish jarayoni o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Koreys diasporasi tajribasi bunga yaqqol misoldir. Ular asrlar davomida shakllangan o‘z milliy-madaniy an‘analaridan, tarixiy yashash hududlaridan zo‘ravonlik bilan ajratilib, O‘rta Osiyo singari mutlaqo yangi ijtimoiy-iqlimiy sharoitga tashlab yuborildi. Sovet tuzumi bu jarayonni "sinflararo tenglik", "xalq do‘stligi" va "xalqaro kommunizm" shiorlari orqali asoslashga urindi. Ammo amalda bu shiorlar repressiv siyosat, assimilyatsiyaga yo‘naltirilgan ijtimoiy loyihalar va sotsial nazorat mexanizmlariga aylanib qoldi.

Biroq koreyslar o‘z mehnatsevarligi, intizomi va kuchli madaniy identikligi evaziga bu og‘ir sharoitda ham ijtimoiy moslashuv va sotsial ko‘tarilish imkonini topdilar. Ularning kolxoz va sovxozlardagi faol ishtiroki, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi muvaffaqiyatlari bu jarayonda muhim rol o‘ynadi. Ammo bu muvaffaqiyatlar kuch bilan amalga oshirilgan jamiyat modeli samarasi emas, balki koreys xalqining ichki sivilizatsiyaviy salohiyati va ijtimoiy chidamliligidan dalolat beradi.

Har qanday jamiyatni majburiy tenglashtirish, milliy xususiyatlarni yo‘qqa chiqarish yoki ijtimoiy muhitni bir qolipga solish orqali “yangi inson” yaratish tajribalari o‘zini oqlamagan. Koreys diasporasi tarixiy taqdiri bu haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi: jamiyat taraqqiyoti tashqi g‘oyaviy bosimlar emas, balki ichki ehtiyojlar, madaniy meros, ijtimoiy muvozanat va tarixiy xotiraning uzviy uyg‘unligida ro‘yobga chiqmog‘i lozim. O‘zbekiston SSR hududiga XX asrning 30–40-yillarida son jihatdan aholisi eng ko‘p deportatsiya qilingan xalqlar birinchi o‘rinda qrim tatarlar, ikkinchi o‘rinda polyaklar, uchinchi o‘rinda koreyslar hisoblangan. Umumiy hisobda bu davrda O‘zbekiston SSRga 350–360 ming, 20 ga yaqin turli millat va elatga mansub xalqlar majburan ko‘chirilgan va bu miqdor butun SSSR bo‘yicha jami deportatsiya qilingan aholining 10 foizini tashkil qilgan.

1930-yillarga kelib, Uzoq Sharqdagi sovet koreyslari o‘ziga xos madaniyat, an‘analar va identitetga ega etnik guruh sifatida shakllandi. Ular yuzlab qishloq xo‘jaligi va baliqchilik kolxozlarini tashkil qilgan, davlat va ijtimoiy tashkilotlarda faol qatnashgan, an‘anaviy madaniyatni saqlab qolgan va rivojlantirgan, koreys ziyolilari son va sifat jihatidan o‘lib borgan, koreys teatr va madaniyat muassasalari faoliyat yuritgan. Koreyslar sovet siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashgan edi

Boshqa xalqlar orasida birinchi bo‘lib, aynan koreys xalqi o‘zining tarixiy yashash hududidan – Uzoq Sharq mintaqasidan – davlat siyosati asosida majburan ko‘chirildi. Bu nafaqat ularning geografik joylashuvini, balki butun hayot tarzini, madaniy muhitini, ijtimoiy tuzilmalarini va milliy identikligini izdan chiqarishga qaratilgan chuqur repressiv harakat bo‘lib, keyinchalik boshqa etnoslarga ham nisbatan qo‘llaniladigan totalitar deportatsiya amaliyotining ilk va og‘ir

tajribasi bo'lib xizmat qildi. Koreyslar SSSR tarixida to'liq (total) deportatsiyaga uchragan birinchi xalq sifatida o'ziga xos og'ir taqdirni boshdan kechirdilar. Bu fojeariy voqea Sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) Markaziy Qo'mitasining 1937-yil 21-avgustdagi 1428-326ss-sonli Qarori "Uzoq Sharq o'lkasining chegara hududlaridan koreys aholisini chiqarish to'g'risida" qarori bilan amalga oshirildi.

Ushbu qaror SNK raisi Molotov va VKP (b) MK bosh kotibi Stalin tomonidan imzolangan. Qarorga muvofiq, VKP (b)ning Uzoq Sharq o'lkasidagi bo'linmalari, ijqo'm va UNKVD organlariga hududdagi barcha koreyslarni, ayniqsa Posyet tumanidan boshlab, olib chiqish va ularni 1938-yil 1-yanvargacha Qozog'iston janubi va O'zbekistonga joylashtirish topshirilgan. Rus-koreyslarning Sovet Uzoq Sharqidan Qozog'iston va O'zbekistonga deportatsiya qilinishi amalda 1937-yil 9-sentabrda boshlandi. 1937-yil 9–23-sentabr kunlari orasida NKVD jami 39 ta poyezd esheloni orqali taxminan 8 000 rus-koreys oilasini deportatsiya qildi. Allaqachon 10-sentabrga kelib, 20 ta eshelon orqali 6 000 ga yaqin rus-koreys oilasi O'zbekistonga yo'lga chiqqan edi. Aynan shu kuni Sovet O'zbekiston hukumati qo'shimcha 12 000 nafar deportatsiya qilingan rus-koreysni qabul qilishga rozilik berdi, bu umumiy hisobda 37 000 kishini tashkil etardi. Biroq dastlab yuborilgan 6 000 oilaning atigi 720 tasiga joy ajratishning uddasidan chiqildi, bu joylarning o'zi ham ta'mirlanib edi.

Ma'luki Sovet davlatida Stalingacha etnik deportatsiyalar bo'lib o'tmagan. Bu esa deportatsiyalar ikkinchi jahon urushigacha va ikkinchi jahon urushi yillarida ko'plab xalqlar va elatlar O'zbekiston va Qozog'iston hududiga ko'chiriladi. Shu davrda O'zbekiston SSRda ko'chirib keltirilgan koreyslarni joylashtirish uchun o'ndan bir qismiga uy-joy ajratilgan xolos, qolganlariga uy-joy yetarli bo'lmagan. Ko'chib kelgan koreyslar uy-joy va oziq-ovqat muammosiga uchraydi va ular palatkalarda va yerto'laga o'xshash joylarda yashashga majbur bo'ladi. Bu voqea O'zbekiston SSR uchun kutilmagan voqea edi. Ayrim koreyslar esa Tojikiston hududida oltin yuvish ishlariga jalb qilinadi.

Nega koreyslar surgun qilindi?" degan savol uzoq yillar davomida sovet davrida yopiq mavzular sirasiga kirgan bo'lib, ta'qibga uchragan koreyslar masalasini o'rganishga ruxsat berilmagan edi. Shu sababli bu mavzuni birinchi bo'lib xorijiy tadqiqotchilar ko'tarib chiqqani bejiz emas. Buning bir nechta sabablari mavjud: Birinchidan, sovet tuzumini tanqid qilishga moyil bo'lgan davlatlarda sovet koreyslari masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida ko'rilgan. Ikkinchidan, koreyslar soni kam yoki umuman yo'q bo'lgan AQSh va Yaponiyada bu masalani ilmiy muhokamaga tortish tashqi siyosiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan.

Mashhur rus tadqiqotchisi N.F. Bugay deportatsiya jarayonini nazorat qiluvchi bo'limlarga oid hujjatlarni tahlil qilish asosida bu jarayonning sabablarini deportatsiyaga uchraganlarning besh toifasi bo'yicha tasniflab chiqdi. Uning tasnifiga ko'ra, koreyslar nemislar, kurdlar, mesxeti

turklari, hemshinlar va yunonlar bilan bir qatorda, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida oldindan ogohlantirish tamoyili asosida majburiy ko'chirishga uchragan ikkinchi toifaga mansub bo'lgan.

N. Bugayning koreyslarning ta'qib qilinishi «oldini olish xususiyatiga ega edi» degan fikri bilan qisman rozi bo'lish mumkin, biroq 1937-yilgi surgunning o'ziga xos tarixiy sabablari borligini unutmash zarur.

Koreyslarning majburiy ko'chirilishi 1937-yil dekabr oyi oxirida yakunlangan. 1938-yil fevral oyi holatiga ko'ra, Qozog'istonga 20 789 ta oila (ya'ni 95 256 kishi) ko'chirilgan.

NKVD xalq komissari Nikolay Ejovning V. M. Molotovga yo'llagan hisobotiga ko'ra, 1937-yil 29-oktabr holatiga kelib, O'zbekistonga 16 272 ta oila (76 525 kishi) joylashtirilgan.

1937-yilga kelib, sovet hokimiyati Sharqiy chegaralarni "ijtimoiy xavfli" deb baholangan unsurlardan tozalash harakatini boshlaydi. Bu jarayon, avvalo, Iosif Stalinning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan urush xavfini oldindan anglab, unga tayyorgarlik ko'rishga kirishganini ko'rsatadi. Chegara hududlarida istiqomat qilayotgan ba'zi millatlarni, xususan koreyslarni, ko'chirish bu siyosatning birinchi bosqichini tashkil etdi. Aynan koreyslar SSSR tarixida ommaviy tarzda majburan ko'chirilgan birinchi etnik guruh bo'lib, Sharqiy chegaralardan deportatsiya qilinishdi.

**Xulosa.** Yaponiya bilan ziddiyat kuchayib, urush ehtimoli aniq bo'la boshlagach, Uzoq Sharqda yashovchi sovet koreyslariga shubha bilan qarala boshlandi. Ularning yapon harbiylari foydasiga josuslik qilishi mumkinligi haqidagi xavotirlar, ularni butunlay boshqa hududlarga ko'chirishga siyosiy asos bo'lib xizmat qildi. I. Stalinning NKVDning Sharqiy tumanlar bo'yicha rahbari general G. S. Lyushkov bilan bo'lgan suhbatida u bu xavf haqida ochiq aytib o'tgan: koreyslar orasiga yapon razvedkachi zobitlar yashirib olishlari mumkinligi va urush chiqqan taqdirda bu aholi dushman tomonga og'ib ketish xavfi mavjudligi alohida ta'kidlangan.

1937-yil 16 va 23-aprel kunlari "Pravda" gazetasida Sovet Uzoq Sharqidagi yapon josuslik faoliyati haqida ikki maqola chop etilgan bo'lib, aynan shu maqolalar koreyslarning deportatsiyasiga zamin yaratdi. Ushbu maqolalarda yapon josuslari Koreya, Xitoy, Manjuriyada hamda Sovet Ittifoqi hududida faoliyat yuritayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, josuslik faoliyatida mahalliy aholi qiyofasiga kirgan xitoylar va koreyslardan foydalanilayotgani alohida urg'ulangan edi.

Markaziy Osiyo va Qozog'istonning o'zlashtirilmagan hududlarini o'zlashtirish hamda ushbu hududlarda guruch yetishtirish maydonlarini kengaytirish zarurati — aynan shu nuqtai nazar, koreyslarning deportatsiyasiga oid hujjatlar maxfiylashtirilgan sharoitda, sovet tarixshunosligida keng tarqalgan va qabul qilingan izoh hisoblangan.

Bizning fikrimizcha chet el razvedka xizmatlariga agent sifatida yollanish ehtimoli nafaqat koreyslarga, balki ruslar, ukrainlar va boshqa ko'plab millatlar vakillariga ham tegishli bo'lishi

mumkin edi. Qolaversa, koreyslarning yapon razvedkasi tomonidan ommaviy ravishda yollanishi mumkinligini tasavvur qilish ham qiyin. Axir, ko'plab sovet koreyslari o'z vaqtida Yapon zulmidan qochib, qurol bilan Yapon bosqinchilariga qarshi kurashgan, shunday ekan, ular rasmiy Yaponiyaga nisbatan hech qanday iliq tuyg'ular bilan yo'g'rilgan emas edilar. Endi esa, koreyslarning guruch yetishtirishdagi muvaffaqiyatlari tufayli ko'chirilganlik haqidagi "ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligi" haqidagi da'voga nazar tashlaylik. Agar koreyslar haqiqatan ham qishloq xo'jaligi sohasida shunchalik yutuqlarga erishgan bo'lsalar, u holda bu tajribani tarqatishning bunday shakli, eng yumshoq qilib aytganda, g'alati, hatto jinoyatga teng ko'rinadi. Birinchidan, ilg'or tajribani tarqatish uchun 170 mingdan ortiq odamni majburan ko'chirish shart emas edi. Ikkinchidan, bu tajriba koreyslarning roziligisiz, zo'ravonlik bilan deportatsiya qilish, kam yashovchi yoki butunlay kimsasiz hududlarga joylashtirish, ularning ayrim huquqlardan mahrum etilishi, harakatlanish erkinligining cheklanishi kabi choralar orqali tarqatilganini tasavvur qilish qiyin — bunday sharoitlar "mukofot" emas, balki jazo vositalariga o'xshab ketadi.

Natijada, Stalinning ushbu siyosiy rejasiga muvofiq, qisqa fursat ichida 171 781 nafar koreys majburan ko'chiriladi. Ulardan 36 000 ta oila Qozog'istonga, 16 272 ta oila esa O'zbekistonga joylashtiriladi. Bu deportatsiya nafaqat geosiyosiy strategiya, balki milliy ishonchsizlik va totalitar nazoratning namunasidir

Raqamlarga murojat qiladigan bo'lsak 1937-yil oktabr-no'yabr oylarining ozidayoq O'zbekistonga 74500 koreys ko'chib keltirilgan. Ularning asosiy qismi Toshkent, Samarqand, Farg'ona viloyatlari va Qoraqolpog'istonning qishloq joylariga joylashtirildi. Faqat kamgina qismi shaharlarda o'rnatilib qoldi. Lekin kelgusi yillarda ularning ixtiyoriy ravishda (birinchi navbatda Qozog'iston, O'zbekistonga ko'chishi kuzatildi.

1939-yilda o'tkazilgan butunittifoq aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, o'sha vaqtda O'zbekistonda 72 944 nafar koreys yashagan. Ulardan 38 653 nafari erkak (taxminan 53 foiz), qolgan 34 291 nafari esa ayollar (47 foiz) bo'lgan.

Aholining yashash joylari bo'yicha taqsimotiga qaralsa, koreyslarning katta qismi — ya'ni 61 688 nafari — qishloqlarda istiqomat qilgan. Bu umumiy sonning 84,6 foizini tashkil etadi. Qishloq aholisi ichida ham erkaklar 32 179 nafar (52,2 foiz), ayollar esa 29 509 nafar (47,8 foiz) bo'lgan.

Shahar hududlarida esa 11 256 nafar koreys ro'yxatga olingan, bu jami aholining atigi 15,4 foizini tashkil etadi. Ulardan 6 474 nafari erkak (57,5 foiz), 4 782 nafari ayol (42,5 foiz) edi.

Bu yerda Sovet davlati tomonidan boshqariladigan "ijtimoiy muvofiqlik" siyosati namoyon bo'ladi — ya'ni xalqni "tegishli" iqtisodiy sektor va joyga joylashtirish orqali ijtimoiy nazoratni kuchaytirish. Koreyslar misolida bu strategiya ularning jamoaviy xotirasi, identiteti va jamiyatda tutgan o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ularga o'zligini tiklash uchun o'nlab yillar, hatto bir necha avlod kerak bo'ldi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu holatda shaxs shunchaki joy almashtirgan emas — u ijtimoiy muhitidan ajralgan, madaniy ildizlaridan yulib olingan va yangi jamiyatda o'ziga begona bo'lgan vazifa va majburiyatlarni bajarishga majbur qilingan. Koreyslar shaharlardan chetda, ko'proq qishloqlarga joylashtirilgani, ularning ijtimoiy zinapoyalarda yuqoriga ko'tarilish imkoniyatlarini cheklab qo'ygan.

O'zbekiston hukumatining SSSR XKKga bir necha bor murojatidan so'ng, ittifoq hukumati shaxsiy uy-joylar qurish uchun 15 mln so'm va O'zbekiston SSR XKK q'oshimcha 2 mln so'm mablag' ajratdi. Ha bir ho'jalikka uy qurish uchun 1500 so'm va hovlidagi binolari uchun 3000 so'm ajratilgan. O'zbekiston XKK 1938-yil aprelida Ko'chirilgan koreys kolxozlarini qurish to'grisida" maxsus qaror qabul qildi. Bunga ko'ra uy-joy qurilishi 1938-yil 1-oktabrigacha tugallanishi kerak. edi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, deportatsiya bu faqat aholini geografik joydan boshqa joyga ko'chirish emas, balki ularning madaniy xotirasi, til, urf-odatlar, diniy e'tiqod va milliy o'zligini to'liq sindirishga qaratilgan harakatdir. Deportatsiya bu —idiyentiklik inqirozi, ya'ni shaxs va xalqning mavjudlik asoslariga berilgan zarbadir.

Qizil imperiya 1935 yildan o'zining sharqiy, g'arbiy va janubiy chegaralarini etnik tozalash ishlarini boshlab yuboradi, bu esa ommaviy deportatsiyaga sabab bo'ladi. Rossiyalik tarixchi N.F. Bugay deportatsiyani quyidagi sabablarga ajratadi:

1. Sovet tuzumiga ideologik ziddlik;
2. "Prevensiya" – ya'ni urush yoki zo'ravonlikdan oldin ehtimoliy tahdid sifatida baholash;
3. Soxta "xalq isyonlari" yoki urushda "xoinlik" ayblovlari;
4. "Ishonchsiz elementlar" degan siyosiy ayblovlar;
5. "Fashizmga xoinlik" (masalan, OUN, UPA, "vlasovchilar").

Shuni ham ta'kidlash joizki Sovet davlati ko'chirilayotgan xalqlarni "ishonchsiz" xalqlar qora ro'yxatiga tushiradi. Bu tasnifdan ko'rinadiki, deportatsiya asosan ideologik, siyosiy va harbiy strategik sabablarga tayangan. Bular orasida koreyslar "potensial xoin" va "yapon josusligining xavfli omili" sifatida ko'rilgan

Deportatsiya siyosiy choratadbir sifatida o'sha davrdagi Sovet rahbariyatining umumiy siyosiy kursining bir qismi bo'lgan. Shu sababli, deportatsiya sabablarini Stalinning siyosatidan ajratilgan holda ko'rib chiqib bo'lmaydi. Xan S.M. va Xan V.S. stalinizm fenomenini turli jihatlar – tizim, siyosat, psixologiya va falsafiy nuqtayi nazaridan tahlil qiladilar

1930-yillarning o'rtalarida O'zbekiston SSR o'zining ijtimoiy rivojlanishi jihatidan mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turardi, nafqat ko'chirib keltiruvchilar uchun, balki o'z holisi uchun moddiy turmush sharoitini ta'minlashga ham qiynalgan vaqti edi.

Ko'chirib keltirilgan koreyslar uchun O'zbekiston SSRda 1939-yilda 2400 o'ringa ega bo'lgan 6 ta o'rta, 3920 o'ringa ega bo'lgan 14 ta to'liqsiz o'rta, 1600 o'ringa ega bo'lgan 10 ta boshlang'ich va 60 ta o'ringa ega bo'lgan internat –maktablar qurish ishga tushirildi.

Koreyslar ko'chirib keltirilgan dastlabki yillarda xalq ta'limi sohasida bir qator muammolar yuzaga keldi. Chunki O'zbekiston SSR ularni qabul qilish va joylashtirish bilan bog'liq moddiy-texnika bazasi va yetarlicha mablag'ga ega emas edi.

1937-yil oxirlarida koreys oilalaridagi maktab yoshidagi 21000 boladan faqat 10505 bola maktabga jalb qilingan. Ayniqsa koreys tilida darsliklar yo'qligi ahvolni yana ham qiyinlashtirdi. Chunki koreys tilidagi darsliklar chop etish yo'lga qo'yilmagan edi.

1939-yildan boshlab Sovet Ittifoqidagi, jumladan, O'zbekistondagi koreyslarga ona tilini o'rganish taqiqlab qo'yildi. Shu bilan koreys tili ular uchun nafaqat ta'limdan, balki kundalik hayotdan ham siqib chiqarildi. Bu vaqtga kelib koreys tili endi ular uchun ona tili emas, chet tiliga aylana boshladi. Yoshu qari, bolalar ham, kattalar ham rus tilini o'rganishga majbur bo'lishdi. O'z tilini, o'z ovozi unutilishga majbur qilindi — bu unutilish esa shunchaki vaqt yoki ehtiyoj bilan emas, yuqoridan tushgan buyruq bilan sodir bo'ldi.

Koreyslarni ijtimoiylashuvini jadallashtirish maqsadida sobiq SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1938-yil 13-martdagi “Milliy respublika va viloyatlar maktablarida rus tilini majburiy o'rganish haqida”gi maxsus qarori O'zbekistonga ko'chib keltirilgan koreyslar xalq ta'limini tashkil etishga qaratildi. Shu munosabat bilan sobiq O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashi ham 1938-yil 19-martida “O'zbekiston SSRdagi o'zbek va boshqa rus bo'lmagan maktablarda rus tilini o'rganish haqida” qaror qabul qildi/

Bu siyosat avvalo ta'lim sohasiga kuchli zarba berdi. Koreys tilida ta'lim bergan muassasalar yopildi. Xususan, 1939-yilda Koreys pedagogika instituti va pedagogika texnikumi faoliyatiga yakun yasaldi. O'zbekistonga ko'chirib yuborilgan bu muassasalarning talabalari taqdiri esa keyinchalik hukumat qaroriga ko'ra qisman hal qilindi. Ularning ayrimlari boshqa oliygohlar va pedagogika bilim yurtlariga qayta joylashtirildi.

Masalan, Koreys pedagogika institutidan O'zbekistonga kelgan 70 nafar talaba qizdan atigi 17 nafari O'rta Osiyo davlat pedagogika institutiga qabul qilindi. Koreys pedagogika texnikumining 150 nafar o'quvchisidan esa 26 kishi Samarqand peduchilishiga, 16 nafari Namangan, 5 nafari esa Toshkent peduchilishlariga taqsimlandi.

Bular oddiy raqamlar emas. Har bir son ortida o'z orzu-intilishi, o'z yo'li va o'z ona tili bilan yashamoqchi bo'lgan yoshlarning talaygina hayoti yotadi. Ammo ularning bu orzulari boshqalarning siyosiy hisob-kitoblariga to'g'ri kelmadi. Til — insonning yuragi, yodi, tarixidir. 1930-yilllardagi bu qarorlar bilan esa butun bir xalqning ovozi sustlashdi, avlodlar orasidagi

ko'priklar parchalanib ketdi. Koreys tili endi uyda pichirlab eslanadigan, balki asta-sekin o'z oilasi va diasporasida ham unutib boriladigan tilga aylandi.

Stalin shaxsiyatining tadqiqi uning siyosiy tafakkuridagi mutlaq nazoratga intilish, avtoritar irodaviylik va repressiv mexanizmlarni ongli tarzda boshqarish istagini ochib beradi. Totalitar tizim doirasida siyosiy legitimlikni saqlab qolish uchun har doim "yangi dushman obrazlari"ni yaratish zarur edi. Bu jarayon o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat siyosiy strategiya, balki ijtimoiy ongning doimiy shubha va xavf muhiti ichida saqlab turishga qaratilgan mafkuraviy mexanizm bo'lib xizmat qilgan. Repressiyalarning ommaviy tus olishini oqlashda "xalq dushmanlari", "zararkunandalar", "sodiq shubha ostidagi elementlar" (xususan, sovet koreyslari kabi milliy guruhlar) kabi kategoriyalar vositachilik qilgan. Bunday tasniflar arbitrarlik asosida shakllangan bo'lib, ular orqali davlat o'zining doimiy "ichki xavf"ga qarshi kurashayotganini namoyon qilgan.

Tadqiqotchi Mavluda Rahmonovanning fikricha deportatsiyaning ijtimoiy falsafiy holatini shunday baholaydi. 1930-yillarda O'zbekiston SSSRda istiqlolchilik harakatlari 1935-yilda butunlay tugatiladi, qatag'onchilik va jadidchilik harakatlari esa 1938-yillarda barham beriladi. Bu esa O'zbekiston SSSRda sovetlashtirish uchun qulay mokin sifatida tanlanadi va bu hududlarga polietnik jamiyatni vujudga keltirish orqali (ya'ni internatsionalizmni shakllantirish orqali) yagona "sovet fuqaroligini" (xalqlar birligi) Sovet davlatiga xizmat qiladigan fuqarolikni vujudga keltirish edi."

Qozog'iston, na O'zbekiston bunday katta sonli odamlarni qabul qilish va ularni joylashtirishga tayyor emas edi. Deportatsiya davomida joylashtirilishi kerak bo'lgan koreys xo'jaliklari soni dastlab ko'rsatilgan raqamlardan 30-40 foizga ko'proq chiqdi. Shuningdek, ko'chiriluvchilarni joylashtirish hududlari, tumanlari va viloyatlari hamda son jihatidan taqsimoti o'zgartirildi, bu esa ularni joylashtirishda qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirdi

1945-yildan boshlab koreyslar "maxsus ko'chirilganlar" maqomiga ega bo'ldi. 1950-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston SSRda 184 122 nafar deportatsiyalangan shaxs ro'yxatga olingan. Shundan: Koreyslar, nemislar, greklar, krim-tatarlar, turkiy xalqlar, mesxetiy turklar, kurdlar, armanlar va boshqalar bor edi; 1953-yilda esa ularning soni 188 689 nafarga yetgan, ulardan 52 924 nafari ayollar, 73 139 nafari erkaklar, 62 626 nafari bolalar edi.

Markaziy Osiyo sharoitida koreyslarning ijtimoiy-iqtisodiy moslashuv strategiyasini, eng avvalo, ularning majburiy ravishda tabiiy-iqlimiy muhitni o'zgartirishga duch kelgani belgilab berdi. Shuningdek, ko'chirilganlarning aksariyati qishloq hududlariga, ko'pincha o'zlashtirilmagan dashtlar, qamishzorlar yoki lalmi yerlarga joylashtirilgani muhim omil bo'ldi.

Mahalliy hokimiyat qarorlari ularni doimiy yashash joylarida bir joyga mustahkamlab qo'ydi, bu esa koreyslarning kompakt yashashini saqlab qolishga yordam berdi. Natijada, ularning joylashuvi xarakteri ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvning asosiy yo'nalishlarini shakllantirdi:

Xo‘jalik yuritish usullarini o‘zgartirish, ya’ni mahalliy tabiiy sharoitga mos bo‘lgan ekin turlarini o‘zlashtirish va ularga qisman moslashish zarurati tug‘ildi; Kasbiy faoliyatda qayta yo‘naltirish – ko‘chirilganlarning aksariyati uchun bu, asosan, yer bilan bog‘liq ish turlariga o‘tishni anglatdi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, koreyslarning SSSR tomonidan majburiy ko‘chirilishi aynan noyabr-dekabr oylariga to‘g‘ri kelganligi bejiz emas. Bu davr tanlanishida chuqur iqtisodiy va ijtimoiy omillar mujassam bo‘lib, ularni tahlil qilish ushbu deportatsiya siyosatining yashirin manfaatdorlik asoslarini anglashga xizmat qiladi. Koreys aholisi asosan qishloq xo‘jaligida, xususan kolxoz tizimlarida faol mehnat qilgan. Ularning ko‘p yillik agrar tajribasi va mehnatsevarligi sovet rejimi uchun ayni hosil yig‘im-terimi davrida nihoyatda foydali bo‘lgan.

Deportatsiyaning kuz-qish oylariga mo‘ljallanishi — ya’ni hosil terib bo‘lingach, ularning mehnatidan foydalanib bo‘linganidan so‘nggina ko‘chirish amaliyotining boshlanganligi — bu jarayonning faqatgina xavfsizlik yoki siyosiy emas, balki iqtisodiy manfaatlar bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv, inson erkinligi va qadr-qimmatini iqtisodiy foyda evaziga qurbon qilishni anglatadi. Bu esa totalitar mafkuraning utilitar asoslarda harakat qilganligini, ya’ni insonni faqat mehnat resursi sifatida ko‘rganligini fosh etadi.

O‘zbekiston SSRga yetib kelganidan so‘ng ham, koreys aholisining asosan qishloq xo‘jaligi sohasiga yo‘naltirilgani ushbu siyosatning uzviy davomidir. Bu jarayonda koreyslar nafaqat yangi muhitga moslashishga majbur bo‘lgan, balki o‘zlarining mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tajribalarini yangi sharoitga ko‘chirishga harakat qilganlar. Shu tariqa, deportatsiya nafaqat jismoniy ko‘chirish, balki ijtimoiy mehnat resursini boshqarishning repressiv-uslubiy modeli sifatida ham namoyon bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Корё Сарам», международному корейскому журналу, выпуск 6–7 (1993 год), С-28
2. «Корё Сарам», международному корейскому журналу, выпуск 6–7 (1993 год), С-283
3. Рахмонова М. О‘zbekiston SSRga majburiy ko‘chirilgan xalqlarning ijtimoiy hayoti (ta’lim tizimi misolida) // Muarrir ilmiy jurnali. – 2025. – №2
4. Kim, G. N. (2005). Koreans in Kazakhstan, Uzbekistan, and Russia. In M. Ember, C. R. Ember, & I. Skoggard (Eds.), *Encyclopedia of Diasporas: Immigrant and Refugee Cultures Around the World* (Vol. 1: Overviews and Topics, pp. 985–994). New York: Springer.
5. Поболь Н. Л., Полян П. М. (сост.). Сталинские депортации. 1928–1953. Документы. – Москва: Международный фонд «Демократия»; Издательство «Материк», 2005. – (Россия. XX век. Серия основана в 1997 году).С-83

6. Jonathan Otto Pohl, Cultural, Spatial, and Legal Displacement of the Korean Diaspora in the USSR: 1937–1945, *Review of Korean Studies*, Vol. 21, No. 1 (December 2018): 171–188.  
© 2018 Academy of Korean Studies. All rights reserved.  
[https://accesson.kr/rks/assets/pdf/7847/journal-21-1-171.pdf?utm\\_source](https://accesson.kr/rks/assets/pdf/7847/journal-21-1-171.pdf?utm_source)
7. <https://youtu.be/y7vkJwyTxd8?si=3QcTPvuzuWlQ6xsLStalin> davrida 60 ga yaqin xalqlar majburiy ko‘chirilgan.Daryo.uz
8. <https://youtu.be/y7vkJwyTxd8?si=3QcTPvuzuWlQ6xsLStalin> davrida 60 ga yaqin xalqlar majburiy ko‘chirilgan.Daryo.uz
9. Ким Г. Н., Абжанов Х. Депортация советских корейцев: от стереотипов к исторической реальности // Вестник КазНПУ имени Абая. Серия: Исторические и социально-политические науки, 2021. – №3 (69). – DOI:
10. Xon Un Xo. Ilmiy xodim, Xalqaro almashinuv instituti, Donkuk Universiteti (Koreya Respublikasi). 13.01.2014 // Arirang.ru. URL: <https://www.arirang.ru/news/2014/14001.htm> (murojaat qilingan sana: 12.07.2025).
11. Рахмонова М. Orol dengizida dovulga uchragan 6 ming koreys taqdiri – Sovet deportatsiya siyosatining ayanchli oqibatlari qanday kechgan? // Oyina.uz. – <https://oyina.uz/uz/article/3623> (murojaat qilingan sana: 12.07.2025).
12. Ким Г.Н. Депортация и ликвидация национальных учебных заведений.// [http://world.lib.ru/k/kim\\_o\\_i/ch4rtf.shtml](http://world.lib.ru/k/kim_o_i/ch4rtf.shtml)
13. Хан С.М., Хан В.С. Сталинизм: к вопросу о причинах политики депортации// Известия о корееведении в Казахстане и Средней Азии. Вып.4, Алматы, 1993. С.7.  
[https://koryo-saram.site/stalinizm-k-voprosu-o-prichinah-politiki-deportatsii/?utm\\_sourc](https://koryo-saram.site/stalinizm-k-voprosu-o-prichinah-politiki-deportatsii/?utm_sourc)
14. Рахмонова М. Orol dengizida dovulga uchragan 6 ming koreys taqdiri – Sovet deportatsiya siyosatining ayanchli oqibatlari qanday kechgan? // Oyina.uz. – <https://oyina.uz/uz/article/3623> (murojaat qilingan sana: 12.07.2025).
15. Babajanova, Nodira. Totalitar tuzumning kam sonli millatlarga nisbatan olib borgan siyosati (1930–1960-yillar) // Ijtimoiy fikr, Inson huquqlari ilmiy jurnali. – 2004. – №3 (27). В-107
16. Ким Г. Н., Ким И. А. Историко-демографический портрет корейцев СССР и СНГ (по материалам переписей населения). Монография. – Алматы: «Қазақ университеті», 2020. – С. 34
17. Babajanova, Nodira. Totalitar tuzumning kam sonli millatlarga nisbatan olib borgan siyosati (1930–1960-yillar) // Ijtimoiy fikr, Inson huquqlari ilmiy jurnali. – 2004. – №3 (27). В-107

18. Rahmonqulova .A Majburiy deportatsiya: SSSRning siyosiy strategiyasi va O‘zbekiston misolida Ijtimoiy fikri. Inson huquqlari // O‘zbekiston gumanitar jurnali. – 2001. – № 2 (14). – B. 43–47
19. Хан С.М., Хан В.С. Сталинизм: к вопросу о причинах политики депортации // Известия о кореевведении в Казахстане и Средней Азии. Вып. 4. – Алматы, 1993. – С. 7–
20. Sun Don Gi O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya munosabatlari : iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi va istiqbollari. Tarix fanlari nomzodligi uchun tayyorlangan dissertatsiya 2000. 89 B ( Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi
21. Sun Don Gi O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya munosabatlari : iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi va istiqbollari. Tarix fanlari nomzodligi uchun tayyorlangan dissertatsiya 2000. 89 B ( Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi
22. Jumayev.T Koreya davlat tarixi .T.: 2024.B-216
23. Ким П.Г. Корейцы Республики Узбекистан (история и современность). - Ташкент: Изд-во «Узбекистон», 1993 С-43
24. Fikrat.uz. Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSRga xalqlarni majburiy ko'chirish siyosati [Elektron resurs]: videomaterial / Fikrat.uz. - Rejim kirish: [https://www.youtube.com/watch?v=HyoIPpKX\\_Us](https://www.youtube.com/watch?v=HyoIPpKX_Us) (14.07.2025).
25. Ким Г. Н., Абжанов Х. Депортация советских корейцев: от стереотипов к исторической реальности // Вестник КазНПУ имени Абая. Серия: Исторические и социально-политические науки, 2021. – №3 (69). – DOI
26. Rahmonqulova .A Majburiy deportatsiya: SSSRning siyosiy strategiyasi va O‘zbekiston misolida Ijtimoiy fikri. Inson huquqlari // O‘zbekiston gumanitar jurnali. – 2001. – № 2 (14). – B. 43–47.
27. Постановление СНК СССР № 35 от 8 января 1945 г. "О правовом положении спецпереселенцев" закрепило принудительное трудовое устройство спецпереселенцев и ограничение их свободного передвижения. См.: ЦГА РУз, ф. 314, оп. 7, д. 18. [https://www.alexanderyakovlev.org/fond/issues-doc/1022606?utm\\_source](https://www.alexanderyakovlev.org/fond/issues-doc/1022606?utm_source)